

Yeti do'nglik shahrimda Men gulimdan ayrildim. Na o'llimi tushunmoqlik, Na undan qo'rqmoqlik ayb. Nozim HIKMAT O. xayollar chuvalashib to'xtadi, atrofga alangladi. Bu joylar unga tanishday, biroq tor ko'chani ilk dafa ko'rib turishi. Bir-ikki qavatli uylar, eski, nuragan hovlilarning bad, qorishiq bo'yлari, eshiksiz-derazasiz devorga borib taqalgan dig'riq boshi berk ko'cha hamma-hammasi O.ga vaqtiyu ko'nglidan olis, chirkin xotiralaridan sizib o'tgan aralash-quralash tushlarining antiqa olamini eslatar edi. Bolalik xotiralarimikan bu?

Yo'q, uning bolaligi bu mahallada kechmagan. Balki ancha yillar burun bu yerga biror qarindoshi, do'sti yoxud tanishinikiga mehmon bo'lub kelgandir. Eslay olmadni. Uyidan ishxonasiga ham bu yo'llardan o'tib bormaydi. Buning ustiga, ko'ngliga shaharning o'ziga daxli bo'lмагan mahallalarida sanqish g'ulg'ulasi ham hech tushmagan. Unda nega hamma narsa ko'ziga, xuddi bu yerni qarichlab o'lchab chiqqanday, tanish tuyuladi? Vujudini kemirgan tashvish, g'alati besaranjomlik hissi qaerdan doridi? U soatiga qaradi. Yarim kecha komendantlik vaqt boshlanishiga juda oz qolgan edi. Imillamay bu yerdan chalkash, befayz jinko'chalardan markaziy ko'chaga, shohko'chaga chiqish, soat o'n ikki bo'lmasidan uyiga yetib olishi kerak, aks holda patrulning qo'liga tushib qolib, tunni shu yaqin atrofdagi komendaturada o'tkazishi hech gap emas.

Balki hammasiga oyning go'yo o'zga dunyolardan bu yerga kelganu g'ira-shirada xaroba tusiga kirgan imoratlar, chuvagonal kalava ipiga o'xshash tor ko'chalar umuman, qulqoni tom bitirgudek sukunatga to'la bu g'aroyib makon ustidan hukm yurgizayotgan kumush-bo'z rang nuri sababchidir? Axir, u ma'nisiz va harakatsiz nigohini oy nuriga tikib, oydin yo'lakdan beo'xB-shov, ammo tantanali qadam tashlab borayotgan oyparast emas-ku! Hushi joyida, esini yemagan, vaqtini ham aniq biladi. Shunga qaramasdan, tushim emasmikan deya, yuragini siqayotgan, g'aroyib parvozdan darak berib turgan vaznsizlik holatini his qilish uchun yerga oyoq tirab sakrashga urinib ko'rdi. Albatta, bundan bir ish chiqmadi. Yo'q, u tush ko'rayotgani yo'q. U, qo'rquvdan tong qotgan chog'ingda jonsiz oyoqlaring bir joyga mixlanib qolganiday, uchish yoki boshqa biror harakatni his qilmayotgan edi.

Lekin u bemahalda bu yerlarda nima qilib yuribdi? Nega keldi bu yerga o'zi, qachondan beri manavi notanish ko'chalarda sanqib yuribdi? O. qanchalik tirishmasin, savollarga jo'yali javob topa olmadni. Ichuvchi bo'lganida ham go'rga edi, ha, endi mastlikda bo'lub turadi-da, adashib, gadoytopmas joylarga kelib qopti, desa... O'lganning ustiga tegpanday, yuragida uyg'ongan va sal bo'lmasa bosinqirashu vahimaga aylanayozgan xavotirni o'zida, bir-ikki daqiqa ham o'tmay dahshatli bir falokat ro'y beradiganday, ko'ngilni alag'da qilayotgan tutqich bermas his...

U qo'qqisdan o'zining tor yo'lakli dig'riq devorga tikilib turganini sezib qoldi. O. shart burildi-da, yo'lak bo'ylab yurib ketdi, muyulishga qayrildi-yu, yana teshik-tuynuksiz devorga ro'para keldi. Qamalib qoldim, degan xayol urildi miyasiga. Lekin zum o'tmay ko'zi devordagi ensiz eshikka tushdi va shoshib shu tomon yurdi. Uni itarib ochdi, ammo o'ylaganidek, hovliga emas, xuddi anovisiga o'xshash boshqa bir tor yo'lakka chiqib qoldi. Birdan yelkasidan tog' ag'darilganday bo'ldi. Shunda u o'zini qo'rqitib yuborgan narsa uzoqdan kelayotgan elas-elas tovush ekanini anglatdi o'sha tovushni bo'g'iq yig'i-sig'i deb o'ylagan, mana, endi aniq-tiniq eshitib bilsa, bu, bor-yo'g'i, motor shovqini ekan. O't oldirilgan moshinaning motori. Bir oz o'tib motor qiziydiyu moshina jo'nab ketadi. Ammo... bemahalda, bu ham yetmaganday, mana bunday tor, tang jinko'chada moshinaga balo bormi? Hali qorasini ko'rinnagan moshina uning yuragiga yana g'ulg'ula soldi. Sababini tuzukroq anglab yetmay turib, uning ko'nglidan bu moshinaga illo-billo ro'para kelmay, tezroq qochib qolish kerak, degan fikr o'tdi.

O. qadamini tezlatgani sayin moshina sasi ham yaqinlashib kelaverdi vahimaga tushib, qocha boshladni. Qocharkan, moshina tor yo'lakdan katta tezlikda o'tib keta olmaydi-ku, degan o'y miyasida aylanardi. Orqadan motor shovqini juda yaqin kelib qolganini sezdi. O. O'zini majburlab o'girildi. Yigirma qadamcha narida ko'chani to'ldirib, ustiga bostirib kelayotgan kattakon qizil limuzinini ko'rdi. Jon shirinlik qilib, duch kelgan eshikni itarib ochib, xuddi singib yo'q bo'lub ketmoqchiday, nafasini ichiga yutgancha devorga qapishib oldi. Ayni choqda motorning ovozi pasaB-yib qoldi, moshinani o'chdi deb taxmin qilish mumkin edi. Biroq qizil limuzin to'xtab qolmagan, faqat tezligi susaygan edi, xolos. U O. qapishib olgan eshikka tobora yaqinlashib kelar edi.

...va go'yo moshina saloni bo'sh ekanini O. ko'rishi uchun naqd uning ro'parasiga kelib to'xtadi. Salon, darhaqiqat, bo'sh, bo'm-bo'sh edi. Haydovchining o'rnida hech kim yo'q.

* * *

U odatdagiday yettiga to'g'rilab qo'yilgan soat zangidan uyg'onib ketdi. Garchi dahshatli tush titrog'i o'tib ketmagan bo'lsa-da, o'z uyida, yotog'ida ekanini, butun ko'rganlari tushida sodir bo'lганини anglagach, o'ziga kelib qoldi. Kulimsirab, bosh irg'ab qo'ydi. Yangi kun boshlanayotgan edi. O'rnidan turishi, yuvinishi, soqol olishi, choy ichishi va ishga jo'nashi lozim. Qilinishi kerak bo'lган bugungi ishlarning ham kechagi, ertangi, bir yil, o'n yil oldindi, bir yil keyingi yumushlar bilan o'xshashligini eslab yuragi siqildi. U, garchi imkonni bo'lmasa-da, yana birpas mizg'ib olib, o'zini aldamoqchiday ko'zlarini yumdi, lekin azaliy odati pand berib, to'shakdan turib ketdi: bugun ham hayotiy ko'nikmasiga aylanib qolgan kun tartibiga rioya qilishi shart edi.

O. yarim soatlar o'tib, o'zi so'qqabosh yashaydigan kvartirasi eshigini tambalab, zinapoyadan pastga enardi. U besh daqiqadan so'ng 7-avtobusga o'tirib, metro stantsiyasiga yetib olishi, metroda esa to'rt bekat yurishi, metrodan chiqib, ishga, to'g'riroq'i, ish joyigacha yana yuz qadamcha bosishi kerak. O'n sakkiz yildan beri shu holat bir vaqt, bir ulov, bir yo'nalishda aynan takrorlanlar edi. Dam olish kunlari, ta'llilar, betob kunlарini hisobga olmaganda, o'n sakkiz yil...

O. sigaret tutatgancha, yo'lak eshididan tashqari chiqayotib, ro'parasidagi piyodalar yo'lkasi yonida turgan qizil limuzinga ko'zi tushdi. U bir sapchib tushdi, qadamlari sustlashdi. Bu o'sha tushida ko'rgan limuzin ekaniga qasam ichib, shahodat berishi mumkin. Xuddi tushidagidek, moshina ichida hech zog' yo'q. Biroq oyloq tushidan farqli o'laroq, hozir ko'cha tonggi quyosh nurlaridan charog'on, bu yerda biror sir yo'q va, binobarin, qizil limuzin ham biror xatar tug'dirmas edi. Moshinaga o'xshagan moshina, biror avlo joyi yo'q, oddiy moshinalarday turibdi joyida. Balki O. uni ko'rgan-u, parishonxotirligi bois e'tibor bermagandir, o'sha moshina g'ayriixtiyoriy tarzda botiniy ongiga o'rnashib qolib, tushiga kirish uchun payt poylab yotgandir. Kuchanib g'o'rillagancha yaqinlashib kelayotgan eski avtobusni ko'rgan O. bekat tomon ildamladi-da, doimo tirband yuradigan bu ulovning orqa eshididan turtina-surtina chiqib oldi. Shunda beixtiyor avtobus derazasidan uyi tomon ko'z tashladi. Qizil limuzin hamon o'sha joyda turar edi.

Ikki bekatlar yurilgandan so'ng aksariyat yo'lovchilar tushib, avtobus bo'shab qoldi. O. bo'sh joylardan biriga cho'kib, u yoqdan-bu yoqqa shoshilayotgan odamlarga, avtobusni quvib o'tayotgan, qarama-qarshi tarafдан kelayotgan moshinalarga, o'zi yonidan ming martalab o'tib-qaytgan uylarga parishonxotir termular, fikrini bir yerga jamlashga urinar edi. Endi u avtobusni chap yoki o'ng yonidan quvib o'tayotgan moshinalarni, xuddi nimanidir izlayotgan yoki kutayotganday sinchiklab kuzata boshladi. Miyasidagi g'ira-shira o'ylar aniq bir fikrga do'ndi-yu, beixtiyor istehzoli kulimsiradi: "Izlayotganim anavi qizil limuzin emasmi? Uni ko'rmaganimga ham ancha bo'ldi, odam sog'inar ekan".

U avtobusdan tushib, o'n qadam ham yurmagan ediki, metroga kiraverishda yo'lkaza taqab qo'yilgan qizil limuzinga ko'zi tushdi. Yana moshina ichida hech kim yo'q edi.

O. metroning o'ziyurar zinasidan enib borar ekan, balki shaharga juda ko'p qizil limuzin keltirilgandir, shuning uchun ham ularni har qadamda uchratayotgandirman, deb o'yadi. Ammo uning tushlariga kirib chiqishini aytmaysizmi? U o'zining zo'raki kulimsiranidan ijirg'andi. Yelkasida yengil bir titroq turdi. "Agar bu o'sha moshina bo'lsa-chi? Meni ta'qib qilib yursa-ya?" Shu asno miyasiga lop etib boshqa bir fikr urdi: "Tavba! Ta'qib qilar emish! Sening kimga keraging bor?" Shuning barobarida O. O'sha qizil limuzinni yana uchratsam albatta raqamiga qarab olaman, deb ko'ngliga tugib qo'ydi. "O'h, demak, sen bu ikkalasini ham bir moshina deb o'ylayotgan ekansan-da?.. Obbo, gapini qarang!"

Mana shunday g'ulg'ula bilan andarmon bo'lib O. umrida birinchi marta tushishi kerak bo'lgan bekatdan o'tib ketib qolsami.

Qarama-qarshi tarafdan kelayotgan poezdga o'tirib, ortiga qaytishga majbur bo'ldi. U metrodan chiqab-yotib, yana qizil limuzinga duch keldi. Bu safar ajablanmadni ham, faqat ichida odami bo'lmasan moshinaning raqamiga ko'z tashladi: "19-91. Tanish-bilishchilik qilib olingen nomer. O'tib borayotgan yilga ham to'g'ri keladi: 1991 yil. Xo'p, nima bo'pti shunga?" U yelka qisib qo'ydi: "Oddiy tasodif".

U kundalik qatnov yo'lining so'nggi qismini bosib o'tar ekan, o'ylab qoldi: nahotki tahririyat oldida ham qizil limuzin turgan bo'lsa? Shunisi ham yetar. Bunday bo'lishi mumkin emas. Metrodan uning idorasiga olib boradigan boshqa yo'lning o'zi yo'q. Demak, qizil limuzin uni quvib o'tishi kerak edi. Shunda uning haydovchisiga ko'zi tushgan bo'lardi. Axir, bu moshinalar o'z holicha kezib yuradigan tush emas-ku...

U atrofni, o'zini quvib o'tayotgan moshinalarni diqqat bilan kuzatar, lekin na ular safida, na tahririyat binosi yonidagi avtomobilalar orasida qizil limuzin bor edi.

O. liftda sakkizinchi qavatga ko'tarilib, o'z kabinetiga kirdi. Kabinet derazalari hovliga qaragan edi. Shu paytgacha e'tibor qilmagan ekan, lekin hozir bundan afsuslandi: derazadan ko'chaga boqib, tashqaridagi moshinalarni kuzatib o'tirishi mumkin edi, qizil... "Yo'q, esimni yeb qo'yganga o'xshayman, deb o'yadi O. jahli chiqib. Nega shu jin urgur qizil moshina xayolimdan ketmay qoldi?"

U kunbo'yi tahririyat ishlari bilan band bo'ldi: ertan chiqadigan gazeta sahifalarini o'qidi, keyingi sonlarga mo'ljallangan maqlolarni tahrir qildi, xatlar bilan tanishdi, shular bilan chalg'ib, tamaddi qilib olish ham xayolidan ko'tarilibdi, soat to'rtlarga borib, ochiqqanini sezdi. U oltinchi qavatdag'i bufetga tushdi.

Tasodifni qarangki, bufet derazasi ham ko'chaga qaragan edi. O. tushlikka pul to'layotib, beixtiyor derazadan tashqari mo'raladi. Pastdag'i moshinalardan birining rangi qizil edi. Ey, o'sha bo'lmasin tag'in?

O. beixtiyor taxminini tekshirib ko'rmoqchi bo'lib birinchi qavatga tushdi-da, ko'chaga chiqib, moshinaning oldiga bordi va nomeriga qaradi: 19-91.

O. nigohlarini qizil limuzinga qadab, hoziroq bir falokat ro'y beradiganday joyida tek qotib qoldi. Ehtimol, kimdir moshina yoniga kelib, unga o'tirishini va bu noxush hodisaga barham berishini kutgandir. Lekin hech kimdan darak bo'lmadi.

Ish kuni tugab borar, tahririyat oldiga qo'yilgan moshinalarga egalari kelib o'tirar va jo'nab ketar edi. Vaqt o'tgani sayin ularning qatori siyraklasha bordi. Qolgan besh-olti moshina orasida qizil limuzin ham bor edi. O. Daf'atan o'zining anchadan beri yo'lkada, moshinalar oldida kimnidir yoki nimanidir kutib turganini sezib qoldi. Endi kutishdan foyda yo'q. Bu yerda ertalabgacha qaqqayib tursa ham nafi bo'lmasligi, qizil limuzinni minib ketgani hech kim kelmasligi turgan gap. Negadir bunga ishonchi komil edi. Boz ustiga, uning ko'nglida hozir jo'nab ketsam, uni ertalabgiday uyimning eshigi oldida ko'rishim aniq, degan ishonch ham paydo bo'ldi. Nega bu g'alati ishonch miyasiga o'rashib qoldi, o'zi ham tushuntirib bera olmaydi.

O. uyiga jo'nadi. Aftidan, moshinalarni kuzatish joniga tekkan, shuning uchun o'tgan-ketgan yo'lovchilarga ham e'tibor bermay qo'yan edi. Ko'nglida, bu ishlar yaxshilik bilan tugamaydi, degan bir alag'dalik bor edi. U xuddi begona shaharga borib qolganday his qilardi o'zini. Tabiiyki, bu his O.ga yot emas, keyingi ikki-uch yil ichida u o'z shahrini taniyolmay qolgan edi.

Shahar tobora befayz bo'lib borayotganday, eski hamshaharlari go'yo boshqa birovlarga almashtirib qo'yilganday edi. Na chora. Shaharda O.ning do'stlari, og'aynilari, hatto tanishlari kundan-kunga kamayib borardi. Hatto shahardagi binolar, ko'chalar, maydonlar ham oldingi fayzini yo'qotdi, xiralashdi, tundlashdi, dag'allashdi. Ilgarilari O. uydan chiqib yuz qadam yurmayoq albatta ikki-uch tanishini uchratar edi, bugun esa shaharni soatlab kezsa ham biror tanishi bilan salom-alik qilishi dargumon.

O. G'ussali xayollarga tolgancha metroga yaqinlasharkan, yo'lka bo'yida 19-91 raqamli qizil limuzinni ko'rib qoldi. Bu yerga qachon, qanday qilib kelib qoldi ekan? Axir, tahririyatdan metrogacha faqat shu yo'l bilan kelinadi. O. hozirgina piyoda kelgan bu yo'lda hech qanday qizil limuzin uchramadi-ku? Yo har doimgi parishonxotirligi sabab e'tiborsizlik qildimikan? Nima bo'lganda ham moshina shu yerda turar, ichida esa yana hech kim yo'q edi.

O.ning ko'nglidagi ayqash-uyqash hislarni bir nom bilan atash mushkul, ammo ularning yoniga yana bir his qo'rquv kelib qo'shilgani aniq edi. Kimdir atay uni tushuniksiz bir o'yinga tortayotgan, bu o'yin u ishga qatnaydigan yo'l bo'ylab davom etayotgan edi. Na chora. O. ichidan gupirib kelayotgan g'azab aralash, mayli, o'yin bo'lsa, o'ynaganim bo'lsin, lekin uning qoidasini, raqiblarim kimligini bilishim, hech qursa, ko'rishim kerak-ku, derdi o'ziga-o'zi. U metro vagonida shu haqda o'ylab ketdi. Demak, "ular" O.ning qatnov yo'lidan xabardor... Iziga tushishgan, xo'sh, buning nima qiyin joyi bor? Bu ularning qo'lidagi kuzir. Kim ekan o'shalar? Bilganida bormi? Balki o'shanda o'yin boshqacharoq bo'lar, uning qoidasi bo'yicha o'ynalarmidi?

"Mayli, kuzir ularning qo'lida bo'lsa, o'yinni buzish mening qo'limda. Hozir har doimgiday metroning o'zim tushadigan bekatidan chiqsam, o'sha qizil limuzinni ko'rishim aniq. Men esa to'rtinchni bekatdan emas, ikkinchisidan... chiqaman". Nega aynan ikkinchisida ekanini O. metrodan ko'chaga chiqib angladi. Bir zamonlar u deyarli har kuni metroning aynan shu stantsiyasidan chiqar, ammo ikki yildan buyon bu yerlarda qorasini ko'rsatmas edi. Metroning shundoq yonginasida kotiba yashardi. Hamma balo shunda ekan.

* * *

Kotiba ham tahririyatda ishlar edi. Kunlardan bir kuni, to'g'rirog'i, bir tuni kotiba bilan O.ning gazeta soniga navbatchiligi to'g'ri kelib qoldi. Ular yarim kechasi gazetani topshirib, ko'chaga birga chiqishdi. Tabiiyki, O. uni uyigacha kuzatib qo'ydi. Undan-bundan, ishdan, xodimlardan, ob-havodon, turmush tashvishlaridan gaplashib ketishdi. Birga ishlayotganiga bir yil bo'lsa-da, hali biror marta bunga o'xhash ko'ngilga erk beradigan vaziyatga tushishmagan edi. Endi esa bo'lar-bo'lmas narsalar haqida valdirab, negadir ikkalasi ham bu kech bir-biridan ayrilmasligiga ishonar edi. Yo'q, faqat bugun, faqat bir kecha emas (Bunga keyinchalik kotiba ham iqror bo'ldi).

Kotiba navnihol, dirkillagan, go'zal, bu ham yetmaganday, bir o'zi turar edi. O. esa bo'ydoq. Hozirgiday. Har doimgiday. Shu voqeа ro'y bergeniga ham besh yil bo'libdi. Demak, o'sha paytlar O. besh yoshlar yoshroq ekan-da.
Kotibaning kamtarligini hisobga olsak, u qilgan nimishora, nimtaklif va nimda'vatlarni, bir piyola choyga kirsangiz, deb tushunish mumkin edi. O. esa niyatiga yetish uchun atayin cho'ntaklariga shapillatib urib, qitmirlik qildi: gugurt faqat uyda bo'lishini bila turib, kotibadan gugurt so'radi. Lekin gap bunda emas, muhimi, o'sha so'lim kecha ularning bir-biriga aytgan so'zlari ham, qilgan imo-ishoralar ham hamma-hammasi tabiiy va yarashiqli edi. Kech bo'lib qolgani eslariga tushganida metro allaqachon yopilgan edi.

O. kotibankida yotib qolishga majbur bo'ldi, bu ham tabiiy bir yo'sinda kechdi. Oshiq-ma'shuqlik uch yil davom etdi. Bu orada ular bir-biridan to'yan, hatto bir-birining joniga tekkan ham ediki, ikkalasini bog'lab turgan ko'rinnmas rishta asab tolasiday taranglashib, og'riqsiz uzilar holatga kelgan edi. Gapning indallosi, har narsaning intihosi bor. Shuning uchun bo'lsa kerak, kotiba tashlandiq bo'lishni xohlamay tahririyatdan bo'shab keta qoldi. Ishdan ketganidan so'ng oradan bir oy o'tib, O. qo'qqisdan uni yo'qlab bordi.

Kotibaning uyiga mehmon yangi ish joyidagi dugonalari kelgan ekan. U O.ni sovuq qarshi oldi, shu sabab odob yuzasidan birpas o'tirib, xayr-xo'shlashib keta qoldi. Oradan bir hafta o'tib, unikiga yana keldi. Bu safar kotiba uyida yo'q ekan. Keyinchalik yana bir bor yo'qladi topolmadi. Shundan so'ng yana eski tegrimon toshi aylanib ketib, ishga ko'mildi-qoldi, kotibani unutdi.

Bu ayrılıq uni na qiyndi, na azob berdi. Yuragi aqallli qilt etmadı, qizni deyarli sog'inmay qo'ydi. U bir o'zi yashashga o'rganib ketgan, yolg'izlikdan aziyat chekmas edi.

O. ba'zan ayollar bilan tanishar, don olishar, ularni uyiga yetaklab kelar yoki ularnikiga mehmonga borar edi. Tabiatan kamgap bo'lGANI uchun tanimaydigan birortasi u bilan birga o'tirib qolsa, zerikkanidan "tars" yorilib ketay der edi. Shuning uchun u bilan tanish-bilishlik, nari borsa, bir-ikki soat davom etardi. O. tanishini oylab eslamasligi ham mumkin edi.

U ikkinchi bekatda tushib, metrodan chiqdi, limuzin-pimuzin degani yo'q. Bundan ajablanmasa ham bo'ladi: uning bu yerdan chiqishi kimning xayoliga kepti deysiz? Bu fikr o'zining ham miyasiga tasodifan kelib qolmadimi, axir!

Oyoqlarining o'zi uni eski odatga binoan kotibaning uyiga boshlab keldi. Mana tanish zinapoya, ikkinchi qavatdag'i pillapoyalardan birining kemtigi bor, qoqilib, peshonangni g'urra qilging kelmasa, ehtiyoj bo'lganining ma'qul. O. uchinchi qavatga chiqib, xuddi kechagina bu yerdan ketganu orada ikki yillik ayrılıq bo'limganday eshik qo'ng'irog'ini bosdi.

Eshik ortida qadam tovushi eshitildi va:

Kim u? degan ovoz keldi.

U javob berdi.

Eshik ochildi. Kotiba O.ni ko'rib hayron bo'ldi.

Semmisani? Qanday shamol uchirdi?

U, shu yaqin atrofda bir ishim bor edi, biryo'lа seni ham ko'rib ketay dedim, deb ming'irladi. Ular hamon ostonada turishar edi.

Nihoyat qiz uni ichkariga taklif qildi.

Kir, dedi qiz. Faqat, aybga buyurmaysan, uy to'zib yotibdi. Mehmon kelishini kutmagan edim.

Xona g'arib bir ahvolda edi. Bo'm-bo'sh, jihozsiz. Faqat devorda bir toshoyna qolgan. Surat chorcho'pi osilgan mixlar, rangi o'ngib ketgan gulqog'ozli devorda yillab osilib turgan o'sha suratlar o'rni qora iz bo'lib qolgan edi. Xona kunjagidagi karton qutilarga kitoblar joylangan, qutilarga sig'maganlari yerda, deraza rafida sochilib yotar edi. Devordagi oyna O.ga kotibani suygan onlarini eslatdi, u bo'lsa O.ning oynaga tushgan nigohidan xayoliga nimalar kelganini uqib oldi. Xona burchagidagi parket rangi polning boshqa joylaridan bo'lakcha edi. Yerdag'i qora to'rtburchak ular bir-birini suygan karavot o'rni edi. O. hatto purjinalar g'ichir-g'ichirini ham eshitganday bo'ldi.

Xayrlashgani keldingmi? deb so'radi kotiba cho'zilib ketgan o'ng'aysiz jimlikni buzib.

Xayrlashish deganining nimasi? taajjublanib unga qaradi O. Yo ko'chyapsanmi?

U tasdiqlab bosh irg'adi.

Uyingni alishtirdingmi?

Yo'q, vatanimni.

O. birpas jimib qoldi-da, so'ngra gap qotdi:

Nima ham derdim. Hozir bu urf bo'lgan Sir bo'lmasa, qaerga?

Uzoqqa, nim tabassum qildi qiz. Boshqa qit'aga, okean ortiga.

O. kotibaning onasi juhud bo'lganini, Amerikada qarindoshlari, xolasimi, tog'asimi borligini esladi. Buni unga qizning o'zi aytgan edi.

Qachon ketyapsan?

Indinga, dedi u. Hamma narsani sotdim, bugun karavotni ham olib ketishdi. Endi yerda yotib uxlashimga to'g'ri keladi.

Mana bu kitoblar-chi?

Ularni ertaga olib ketishadi. Keyin birdaniga esiga tushib qoldi. Oshxonadan ikkita istakan topiladi. Hozir senga choy qo'yib beraman.

Keragi yo'q, dedi O. Lekin kotiba oshxonaga chiqib bo'lgan edi.

O. metro stantsiyasiga qaragan deraza yoniga kelib ko'chaga tikildi. KeB-yin o'zining oynadagi aksiga ko'zi tushdi; yuzi salqigan, ajinli ko'zlar ostida xaltachalar, sochi oppoq. Yo'q, unga sochi oqarmagan, aksincha, mog'orlab ketganday tuyuldi.

U qo'liga ilingan kitobni olib parishonxotir, hech bir maqsadsiz varaqlar, qaytib joyiga qo'yari edi. Eski entsiklopediyalar, ko'p tomliklar, lug'atlar, ma'lumotnomalar deganday. Ularning orasida nodir kitoblar ham ko'rinish qolardi. Ko'p sahifalarining hoshiyalari qalamda qo'yilgan belgilari bilan to'lib ketgan, matnning o'zida esa tagiga chiziq tortilgan joylar bisyor edi. Bu kitoblar yengil-elpi o'qilmagani shundoq ko'rinish turardi.

Kotiba oshxonadan ikkita suyanchiqsiz kursi keltirib, bittasini O.ga uzatdi:

O'tir.

Yana qaytib borib, bir istakan choy bilan qanddon olib keldi-da, ikkinchi kursiga qo'ydi.

Juda boy kutubxonang bor ekan, dedi O. Bilmagan ekanman.

Sen nimani bilarding o'zi? dedi hazil aralash qo'l siltab kotiba. Ota-onamdan qolgan... Ba'zi kitoblarni keyinchalik o'zim sotib olganman...

O. e'tibor qilmay, bosh chayqadi.

Sening xayoling doim boshqa yoqda bo'lар edi. Ostona hatlading deguncha menga tирг'алиб, то'shakka tortar eding. Ishing bitgandan keyin esa qochib qolishni o'ylab timmay soatingga qarar eding. Men esa seni bunday noqulay vaziyatdan qutqarish uchun: "Shoshilyapsan, ishing bormi deyman?" der edim. Sen bo'lsang: "Ha-ha, zarur bir ishim bor, ketmasam bo'lmaydi", deb juftakni rostlab qolar eding.

O. ham esladi: doim shunday bo'lardi, bu haqda ko'p gaplashilgan o'sha paytlar, ammo ikkovi ham hozirgiday befarq emas edi. Bora-bora suhbatlari zerikarli, achchiq-tiziq tus ola boshladi, ular asta-sekin bir-biridan sovishiga, ehtimol, shu ham sabab bo'lgandir. O. O'sha eski, mutlaqo bema'ni suhbatlarni eslashedi sira istamasdi. U "plastinka"ni o'zgartirdi.

Hoshiyadagi belgilarni otang qo'yganmi? dedi u qalama qo'ilgan belgilarni ko'rsatib.

Ba'zilarini otam, ba'zilarini esa onam... dedi kotiba jilmab-yib. Harqalay, men qo'yaganman.

Otang inglizchani bilarmidi?

Ha, nemischani ham. Forschani ham.

Bu kitoblarni kimga qoldirib ketyapsan?

Ularni sotdim.

Sotding? Kimga?

Har kimga. Birovni bir xil kitoblar qiziqtiradi, boshqalarni boshqasi.

Achinmaysanmi? Axir, ularda ota-onangning qaydlari bor-ku...

Na chora? Gap bilan qorin to'ymaydi. Ota-onam ham, kitoblari ham o'lib ketdi. Mening bo'lsa hali yashashdan umidim bor.

Kitoblarni ham o'ldi deyapsanmi? Qanaqasiga?

Nimasini tushunmaysan? Mana shu kitoblarni o'qigan, yiqqan, ular haqida o'ylagan va hayotining bir bo'lagi deb hisoblagan odamlar o'lsa, kitoblari ham ular bilan birga ketadi, ya'ni kitob ham qazo qiladi. Yangi xo'jayin qo'liga o'tgach, ular endi avvalgi kitob bo'lmay qoladi. Ba'zi birovlar kitobsiz yashay olmaydi, lekin men ular xilidan emasman, hazil qildi qiz. Ko'rib turganingday, ularsiz ham binoyiday yashab yuribman. Men ko'p narsasiz yashashim mumkin.

Masalan, vatansiz ham, dedi O. atay chaqib olish uchun.

Masalan, muhabbatsiz ham, deb qo'ysi Kotiba ma'yus ohangda.

O. avvallari kotibani bunaqa ahvolda ko'rmagani uchun qiziqsinib qaradi.

Lekin, davom etdi kotiba bir oz jimlikdan so'ng, kitobni, uni o'qishni, o'ylashni yaxshi ko'raman... Mazmunini emas, umuman, u haqda o'ylashni... Mana, qara: shu kitoblarining qanchasi ellik yillab sen bilan birga yashaydi, menga ular tokchalarda yonma-yon turaverganidan bir-biriga ham o'rganib qolgan, ba'zan ichidagi fikrlar biridan ikkinchisiga o'tganday, qahramonlari kechasi hamma uyquga ketganda bir-birinikiga mehmon bo'lib borganday, suhbatlashganday, bahslashganday, janjallahganday tuyuladi. Xuddi men bilan senga o'xshab, ularning har biri bir olam.

Biz janjallahshmaganniz.

Ha, to'g'ri. Endi buning ahamiyati yo'q... Harqalay mana shu kitoblar bir oila edi. Endi bo'lsa ular bir-biri bilan xayrashmoqda, chunki oila tarqab ketyapti. Ertaga ular bir-biridan uzoqda, shaharning har tarafida, boshqa-boshqa odamlar qo'lida bo'ladi.

Boshqa hech qachon ko'rishmaydi. Kotiba jim qoldi va qo'shib qo'ysi. Xuddi men bilan senday.

Rahming kelyaptimi? dedi O. kitoblarni nazarda tutib.

Yo'q, endi kelmayapti, deb javob berdi kotiba o'zi bilan O.ni nazarda tutar ekan.

Hali shunaqaman de? dedi O. xayolchan. Nega oldinroq bunaqa gaplashmagansan... men bilan?

Esingda bo'lsa, sen bu yerga gaplashgani kelmas eding.

Jahling chiqmasin...

Yo gapim noto'g'rimi? Ishda o'ta rasmiy gaplashardik, bilmadim, mengami yoki o'zinggami gap tegishidan qo'rkar eding, uyda esa... Xayolingga boshB=qa narsa kelmasin, men hozir faqat o'sha vaqtini esladim. Senga hech qanday da'vom yo'q... Hatto, da'vom bo'lishi kulgili-ku... Oqar suvlar allazamonlar oqib ketdi...

O. bu yoqqa kelayotganda shu gaplar xayolida ham yo'q edi, lekin ilkis uyg'onib ketgan xotiralar uning kotibaga bo'lgan maylini yana qo'zg'ab yubordi va ular hech qachon bir-birini mana shunday ship-shiydam devorlar orasida, bo'm-bo'sh yerda... sochilib yotgan kitob va gazetalar orasida suymaganini o'ylab xayoli qochdi. Ko'ngli sust ketib, kotibaning yoniga bordi, quechmoqchi bo'ldi, biroq u muloyim, ammo keskin qarshilik ko'rsatdi.

Keragi yo'q, dedi kotiba, oqar suvlar oqib ketdi. Oldinlari seni eslab turar edim, lekin keyingi paytlarda tushlarimga ham kirmay qo'yding. Ketish oldidan sen bilan xayrashish istagi yuragimga o'mashib qolgan ekan. Xayolimdan ko'p marta o'tgan biror istak yuragimga o'rashsa, amalga oshmay qolmaydi. Mana, o'z oyog'ing bilan kelib o'tiribsani. Rostdan ham ketayotganimni eshitmaganmiding?

Eshitganim yo'q. Tasodifan kirib qoldim. Bir ishim bor edi...

Qanaqa ish ekan?

O. qizil limuzinni og'zidan gullab qo'yishiga sal qoldi, lekin tilini tiydi: nimani ham aytardi? Shu bugunning o'zida bitta moshinani ikki-uch marta ko'rganinimi? Nima bo'pti shunga? Ko'rsa ko'ribdi-da.

Qolaversa, kotiba o'zidan juda uzoqlashib ketgan edi. O. bilan xuddi boshqa dunyoda turib gaplashganday gaplashdi.

O.ning ko'nglida birdan o'ziga befarq qarab turgan oynani chil-chil sindirish istagi bosh ko'tardi, biroq toshoynani sindirish baxtsizlik keltirishini ayni vaqtida eslab qoldi. U shu tobda na o'zining, na kotibaning baxtsizligiga rozi edi. Balki kotiba hali sirtida O. ikkovining aksi sovib ulgurmagan muhabbatlari toshoynasini ham sotgandir: uni ham boshqa uyg'a olib ketib, bir begona devorga osib qo'yishar, balki shunda u sovuq sirtida boshqa hayot, boshqa bir muhabbatni aks ettirar.

Faqat xayrashishsa bo'ldi, endi O.ni tovushu ovozlar mozoriga aylangan bo'm-bo'sh xona bilan bog'lab turgan narsaning o'zi qolmagandi. Ketish kerak. U garchi qayta ko'rishish hech qachon nasib etmasligini bilib tursa-da "Mayli, omon bo'l. Balki yana qachondir, qaerdadir ko'rishish nasib etar", dedi.

O.ostonada kotibaning peshonasidan o'pib, zinapoyadan ena boshladi. Ikkinci qavatda kemtik zina borligi esidan chiqibdi, qoqilib ketib, yiqilishiga oz qoldi. Boshini ko'tardi. Kotiba zinapoya supasida turar edi. O. tepaga qaraganida qo'l silkib qo'ysi. Jilmayganday tuyuldi. U yo'lida davom etdi, tepadan yopilayotgan eshikning g'iyyqillashi eshitildi. Bu g'iyyqillash karavotning ingragan purjinalarini eslatdi, shundagina u kotiba bilan vidolashganini aniq his qildi. Dafatan yana shuni ham tushundiki, garchi yillab ko'rishmagan bo'lsa-da, kotiba shahardagi yakkayu yagona yaqin odami, qizil limuzindan faqat unga gap ochishi mumkin ekan.

This is not registered version of TotalDocConverter

Shundakilga qaytdi o'sha. Kuchka, o'maqdumiz, org'a yashaymiz, kitoblarining hech kimga sotmaymiz" yoki "...hech bo'lmasa, faqat shu kecha birga bo'laylik, yerga kitoblarini to'shaymiz, eski gazetalarni yopinamiz, bir-birimizning pinjimizga kirib, bor dunyoni unutamiz", deb aytsammikan degan fikr keldi miyasiga.

Lekin buning iloji yo'q edi: hammasi hal bo'lgan, endi hech narsani ortga qaytarolmaydi, bunga aqli yetib turibdi.

O. ko'chaga chiqqanida qizil limuzin shundoq eshik oldida metin qoyaday savlat to'kib turganini ko'rди. O. ajablanmadи ham, qizil limuzin uni shu yerga ham topib kelgani tabiiy, oddiy bir gapday, xuddi shunday bo'lishi kerakday edi nazarida. Yuragida hadik-xavotir yo'q. Bamaylixotir metro tomon yurib ketdi. Yomg'ir shivalab yog'ardi. Go'yo begonadek bo'lib qolgan shaharda faqat yomg'irgina unga tanish edi. Hamma, hamma narsa begona, butunlay o'zgarib, fayzini yo'qotgan edi. U tund osmonga qaradi, bulut qoplagan osmongina unga tanish edi, tanish osmondan tanish yomg'ir yog'ar edi. Nazarida bu yomg'ir o'tmishtan, mangu boy berilgan o'tmishtan yog'ayotgan edi.

O. metrodan chiqqib, avtobusni kutib o'tirmay, uyiga yayov jo'nadi. Yomg'ir haliyam yog'ayotgan edi. Mana, u hozir yana bir oz yurgach, uyining eshigida qizil limuzinni ko'radi, albatta ko'radi.

Ammo uyga yetdi hamki, na qizil, na qora moshina ko'rindi, uy oldi bo'm-bo'sh. "Na chora, o'yladi u. O'sha moshinani tushimda ko'raman endi".

U tong-sahar soat to'rt yarimda to'satdan uyg'onib ketdi. Soat zang chalinadigan ertalabki yettini kutib, chiqillab vaqt sanar edi.

Biroq O. soatiga qarab, hoziroq joyidan turishi kerakligini anglatdi. U o'rnidan turib, deraza yoniga bordi. Ko'ngli sezgan ekan: saharning xilvat ko'chasida, uy eshigi oldida qizil moshina turar edi. Qizil limuzin...

O. endi nima qilish kerakligini yaxshi bilardi. U vannaxonaga kirib cho'mildi, shoshilmasdan soqlol oldi, toza oq ko'ylagini, dazmollangan ko'cha kostyumini kiydi, eng yaxshi bo'yinbog'i taqdi, tuflisini yaltiratib artdi.

Tashqariga chiqish oldidan xonani ko'zdan kechirdi. Bo'm-bo'sh xonani shovqinga to'ldirib chiqillayotgan soatni to'xtatib qo'ysammi, deb o'yladi, lekin bu fikridan qaytdi. Endi buning nima farqi bor?

Unchalik chekkisi kelmayotgan edi, chekmay qo'ya qoldi, chunki "so'nggi sigaret, falon-pismadon" qabilidagi safsata gaplar esiga tushib ketdi. O. shoshmay zinadan tushib, ko'chaga chiqdi.

Ko'cha bo'm-bo'sh, qorong'i edi. Asfaltning ba'zi joylarida kechagi yomB-g'ir ko'lmaklari qorayib ko'rinar edi.

U qizil limuzinning oldiga bordi. Moshinaning eshigi qulflanmaganini bilar edi.

Eshik chindan ham qulflanmagan ekan. U eshikni ochdi va rulga o'tirdi.

U moshinaning kaliti ham joyida ekanini bilar edi.

Kalit joyida ekan.

O. notanish ko'chaga, notanish uylarga, tanish osmonga nazar tashladi.

Tiniq osmon havo ochiq bo'lishidan darak berar edi.

U kalitni buradi.

TELEGRAF AGENTLIGINING XABARI:

"Bugun soat chamasi beshlarda N. ko'chasida avtomobil portlab ketdi. Moshinaning o't oldirish qulfiga portlovchi moslama ulangan, degan taxmin bor. Portlatgichni kim o'rnatgani, moshina kimga tegishli, unga o'tirgan, tanib bo'lmaydigan darajada kuyib ketgan jasad kimni ekani hozircha ma'lum emas. Surishtiruv ishlari boshlandi".